

Istaxriyning (X asr) "Kitab al-masalik val-mamalik" asari ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilindi

Istaxriyning (X asr) "Kitab al-masalik val-mamalik" asari ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu kitob sayyoh, geograf Istaxriy va uning X asr musulmon dunyosi tavsifiga bag'ishlangan "Kitab al-masalik val-mamalik" asari tadqiqiga bag'ishlangan.

ИСТАХРИЙ

Китаб
ал-масалик
вал-мамалик



Unda "Kitab al-masalik val-mamalik" asarining bevosita Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy geografiyasi bilan

bog'liq "Xuroson" va "Movarounnahr" iqlimlarining tarjimasiga amalga oshirilgan. Asar tarjimasiga o'ziga xos tarzda yangicha yondashilgan. Tarjima uchun asarning arab tilidagi (11 ta) va forsiy tarjimasidagi (8 ta) qo'lyozma va nashrlardagi matnlari jalb etilgan.

Ushbu kitob O'zR FA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi Ravshan Xudayberganov tarjimasiga va tegishli tadqiqoti asosida 100 nusxada "Fan" nashriyoti tomonidan nashr etildi.

Kitob Markaziy Osiyoning o'rta asrlar tarixiy geografiasini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida tarixchi mutaxassis va umuman kitobxonlar diqqatiga taqdim etiladi